

NAVOIY POETIKASIGA BIR NAZAR

Abdug'aniyeva Farangizbonu¹

¹O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute
Farg'ona mintaqaviy filiali "Musiqali teatr aktyorligi"
3-bosqich talabasi

Umidaxon Boltaboyeva²

ilmiy rahbar:

²O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining
Farg'ona mintaqaviy filiali v.b. dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7215339>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lirik poeziyasi, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlari, Navoiyning devon poetikasi sohasidagi mavjud an'analarga tanqidiy munosabati hamda uning turli lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida hikoya qilinadi.

Kalit so'zlar: Poeziya, poetik mahorat, lirika, devon, g'azal, mahorat, qo'lyozma. Ma'lumki, o'zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog'langan. Navoiy devonida biz, bir tomondan, o'zbek poeziyasida o'zining ma'lum an'alariga ega bo'lgan lirik janrlarning mohiyat e'tibori bilan yangicha rivojini ko'rsak, ikkinchi tomondan, adabiyotda o'zining qat'iy qonuniyatlariga ega bo'lgan, ammo o'zbek adabiyotida (yoki umuman turkiy adabiyotda) paydo bo'lmagan yoki u kadar rivoj topmagan ba'zi bir janrlarning yangi zamindagi hayotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Binobarin, asosiy lirik janrlarni, adabiy ko'nikma an'alar bilan munosabati nuqtai nazaridan sistemali tahlil etish asosida, ularning ichki dinamikasi va adabiy jarayondagi mavqeni belgilash hamda shu asosda Navoiyning lirik janrlarning taraqqiyotdagi rolini ko'rsatish bizning zimmamizdagi muhim vazifa hisoblanadi. Navbatdagi vazifa esa, lirik she'rlardagi badiiylik vositalari xamda usullarni sharq poetikasining tradision qoida va qonuniyatlari nuqtai nazarida tahlil etish asosida Navoiy badiiy tasvir poetikasi uchun xos bo'lgan etakchi tendensiyalarini ochib berish, buyuk shoir poetik mahoratining ayrim qirralarini namoyish etishdan iborat.

Navoiyning poetika sohasidagi novatorligini uning devon tuzish an'anasiga bo'lgan ijodiy munosabatidanoq yaqqol sezish mumkii. Alisher Navoiyning o'zi tomonidan tuzilgan birinchi devon «Badoeul-bidoya» deb ataladi. 1469 yildan keyin tuzilgan bu devon 842 ta she'rdan tashkil topgan. Alisher Navoiyning o'zi tuzgan ikkinchi devon «Navodirun-nihoya» deb ataladi. Bu devon 1480— 1487 yillar orasida tuzilgan. Alisher Navoiy 1492— 1498 yillar orasida o'zining avvalgi ikki devoniga kiritgan, Shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan hamda turli sabablarga ko'ra: avvalgi devonlariga kirmay qolgan barcha janrdagi

she'rlarini to'plab, XV asr lirikasining buyuk qomusi bo'lmish «Xazoyinul-maoniy» devonini tuzdi. Bu devon ulug' shoirning butun hayoti davomida yaratgan va 16 xil lirik janrga mansub bo'lgan deyarli barcha o'zbekcha she'rlarini o'z ichiga olgan. «Xazoyinul-maoniy» faqat o'z mundarijasi bilangina emas, balki strukturasi, nomlanishi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Alisher Navoiy «Xazoyinul-maoniy» uchun debocha ham yozgan. Bu debocha har jihatdan puxta bir ilmiy risola bo'lib, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlarini tug'ri tushunishga yordam beradi. Unda muallif, o'z zamondoshlarining uning she'rlariga bo'lgan munosabati, mavjud devonlari va ularning yuzaga kelish sabablari hamda o'ziga xos xususiyatlari, o'zining turli lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, xullas, butun poetik ijodining muxtasar va yorqin kartinasini chizadi. Navoiy mazkur devon debochasida to'rtala devonning nomlanishi masalasida shunday yozadi: «...Avvalgi devonnikim, tufuliyat bahori g'unchasining ajib gullari va sig'ar gulzori bog'chasining g'arib chechaklari bila orosta bo'lub erdi, «G'aroyibus-sig'ar» deyildi. Ikkinchi devonnikim, yigitlik oshuftalig' va shabob oluftalig' yozi va dashtida yuzlangan nodir vaqoe' bila piyrosta bo'lub erdi, «Navodirush-shabob» ataldi. Va uchinchi devonnikim, vasatul-hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan bade' nishotlar kayfiyatin yozilib erdi, «Badoeul-vasat» ot quyuldi. Va to'rtinchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishk dardu ranji foydalarikim, jonso'z oh urmoq va jon topshurmoqdurkim, onda sabt bo'lubtur, «Favoyidul-kibar» laqab berildi». Navoiyning mazkur so'zlarini, ya'ni devonlarning nomlanishini shartli deb qabul qilish kerak. Chunki u she'rlarni devonlarga taqsimlagan paytda, ularning haqiqiy xronologiyasini nazarda tutmagan, balki har bir she'rning ruxi, uslubiga ko'proq e'tibor qilgan. Natijada yoshlik chog'ida yozgan ko'pgina g'azallari keyingi uchta devoniga kirib qolganidek, qarilik chog'ida yozgan g'azallarining bir qismi ham avvalgi devonlarida uchraydi. Shuning uchun ham, Navoiy hayotining turli davrlarida yozilgan g'azallar soni bir-biridan tafovut qilishig'a qaramay, «Xazoyinul-maoniy» devonlaridagi g'azallar soni teng (650 tadan). Bu manzara ilk devondagi 434 ta she'rning «Xazoyinul-maoniy» devonlariga bo'linishi misolida yaqqol ko'zga tashlanadi: Xullas, «Xazoyinul-maoniy»da she'rlarning devonlarga taqsimlanishi va ularning nomlanishi shartli bo'lib, simvolik xarakterga ega. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi lirik she'rlari «Xazoyinul-maoniy»da mujassam bo'lgan. Lekin bu devonning oxirgi redaksiyasi 1498 yilga to'g'ri keladi. Demak, Navoiy xayotining so'nggi ikki yili davomida yaratilgan lirik she'rlar bu majmuag'a kirmay qolgan. Shuningdek, «Navodirun-nixoya»ning

debochasi bor haki- qiy varianti aniqlanganicha yo'q (mavjud ikkita qulyozmada ham debocha yo'q va she'rlar soni turlicha). Binobarin, Navoiy devonlarining hozirgacha noma'lum bo'lgan qadimiy nusxalarining topilish shoir Inrik merosining (o'zbek tilidagi) umumiy hajmi hamda asosiy davrlari haqidagi mavjud ma'lumotlarga ba'zi bir o'zgartishlar kiritishi mumkin. Lekin «Xazoyinul-maoniy» asosiy e'tibori bilan Alisher Navoiy lirik merosining (o'zbek tilidagi) mukammal majmuasi bo'lib qoladi. Navoiynng devon poetikasi sohasidagi mavjud an'analarga tanqidiy munosabati yigitlik davridayoq shakllangan bo'lib, u o'zining bu boradagi mulohazalarini birinchi tuzgan devoni «Badoeul-bidoya» debochasida ochiq bayon qilgan. Alisher Navoiy mazkur debochada: «Necha nav' ishqim munda mar'i bo'lubturur, o'zga davovinda ko'rulmaydur. Ul budurkim»,—deb, o'z devoniga xos to'rtta original xususiyatni sanab ko'rsatadi. Bu xususiyatlar devonning strukturasn hamda uning mohiyati, she'rlarning tematik-g'oyaviy asoslari hamda uslubi uchun taalluqli. Avvalo, mavjud devonlar 28 ta maxsus arab harflari asosida tuzilgan bo'lib, shoirlar fors va turk tillari uchun xos bo'lgan «to'rt harfga taarro'z qilmaydururlar». «Bu jihatdan ul to'rt harf javharidin dog'i o'zga huruf javhari silkiga tortnb, g'azaliyotni o'ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi». Ikkinchidan, «xar harf g'azaliyotining avval bitilgan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioya kilmaydururlar. Muqarrardurkim, xar amrda bir lahza xaq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayxissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmog'liq noqisdur... Bu nav' xayol xotirg'a kelgan uchun har harf g'azaliyotining azvalg'i g'azalni yo tengri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayxissalom na'ti bila mufattak, yo bir mav'iza bilakim, bu ikki ishtin biriga dol bo'lg'ay, muvazzah qilindi». Demak, Navoiy devonida har bir xarf hamd yoki na't xarakteridagi g'azallar bilan boshlanadi va bu hol devon tarkibidagi har bir gurux g'azallarga o'ziga xos mustakillik ruhini bag'ishlaydi. Navoiy devoniga xos uchinchi xususiyat bevosita uning tematik doirasi va g'oyaviy asoslari bilan aloqador. «...Bu devonda xamd va na't va mav'izadin boshqa har shurangez g'azaldinkim, istimo mahvashlarg'a mujnon sarkashlik va g'amkashlarga mujibi mushavvashliq bo'lg'ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav'izatoso bayt irtikob qilindi...». Bu erda gap devoidagi she'rlarning tematik-g'oyaviy jihatdan kengligi, falsafiy, didaktik va ijtimony jihatning kuchli ekanligi ustida bormokda. Shoir ta'kidlarining to'rtinchisi esa bevosita g'azalga taalluqli bo'lib, uning g'azalchilik tradisiyasiga bo'lgan tanqidiy qarashlari hamda novatorligini aniqlashga imkon beradi (biz janrlar munosabati bilan bu haqda maxsus to'xtalamiz). Navoiyning mazkur mulohazalari uning birinchi devoni «Badoeul-bidoya» munosabati bilan

bayon qilingan. «Xazoyinul-maoniy» esa undan qariyb o'gtiz yilcha keyin tuzilgan. Binobarin, Navoiy lirik merosining mukammal majmuasi hisoblangan bu asarda uning devon poetikasi borasidagi barcha rejalari to'liq ifodasini topgan bo'lishi, shubhasiz. Shuning uchun ham biz bu yig'ma devonda Navoiyning oldingi devonlarida bo'lmagan bir qator xususiyatlarni ko'ramiz. Jumladan «Xazoyinul-maoniy»da barcha harflarning boshlanish qismiga maxsus sarlavhalar qo'yilgan. Shuningdek, qit'alar ham ularning mohiyatini yaxshiroq idrok etish uchun yordam beradigan, san'atkorona yozilgan maxsus sarlavhalar bilan ta'minlangan. Bu devon poetikasi uchun xos fazilatlaridan yana biri uning butun strukturasi qat'iy simmetriya qonuni asosiga qurilganligidadir: devonning asosini tashkil eggan g'azallar ((2600 ta) to'rtala devonga bir xilda (650 tadan) taqsimlangan; har bir qofiya yoki radifga barcha devonlarda she'r berilgan (iloji boricha teng miqdorda va bir xil o'rinda). Shuningdek, radif sifatida kelgan so'zlar (xususan, arabcha so'zlar) bir o'zakka mansub bo'lsa, ularning grammatik jihatdan yasalgan gartibi ham nazarda tutilgan (masalan: taxis — maxsus). Xullas, devon tuzish tarixida o'ziga xos hodisa xisoblangan «Xazoyinul-maoniy» Navoiy lirik merosining haqiqiy ko'zguisigina emas, balki o'zbek klassik she'riyatining barcha fazilatlarini o'zida mujassam etgan poetik ensiklopediya bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vosifiy Zayniddin. Badoe'ul vaqoe' - Nodir voqealar / Forsiydan N.Norqulov tarjimasini. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.-216 b.
2. Jomiy Abdurahmon. Layli va Majnun. Salomon va Absol / Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi A.Qayumov. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. - 224 b.
3. Navoiy Apisher. Ayyomi visol o'ldi yana: Yangi topilgan g'azallar / Nashrga tayyorlovchi F.Sulaymonova. -Toshkent: Adabiyot va san'at. 1995.
4. Navoiy Alisher. Xazoyinul maoniy / Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrgatayyorlovchiH.Sulaymonov.4-jildlik. 1 -4-jildlar. - Toshkent: Fan, 1959 - 1960.
5. Navoiy Apisher. Badoe' ul-bidoya. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1987. T. 1. - 723 b.
6. Navoiy Alisher. Navodir un-nihoya. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1987. T.1. -6 2 0 b.
7. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1988. T.Z. - 616 b.
8. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1989. T.4. - 557 b.



9. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. Badoe' ul-vasat. MAT. 20 jildlik. - Toshkent: Fan, 1990. T.5. - 541 b.

